gi; jinoyatning ochilishi, ishtirokchilarning aniqlanishi, jinoyat natijasida qo'lga kiritilgan mol-mulkning qidiruvi va topilishiga ko'maklashish; jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararining ixtiyoriy ravishda qoplab berilishi yoki bartaraf etilishi, yuridik shaxsning jabrlanuvchiga yetkazilgan ziyonni kamaytirishga qaratilgan boshqa choralari; yuridik shaxsni tavsiflovchi holatlar, shu jumladan, unga nisbatan avval ham jinoiy-huquqiy choralarning qo'llanganligi yoki xayriya yoxud ijtimoiy foydali boshqa faoliyat bilan shug'ullanganligi kiritiladi. Shuningdek, aynan jarima jazosining miqdorini belgilashda yuridik shaxsning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli ham inobatga olinishi belgilanadi.

Armaniston JK 125-moddasi ikkinchi qismiga binoan, yuridik shaxsga nisbatan jinoiy-huquqiy ta'sir choralarining turi va miqdorini belgilashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va xavflilik darajasi, jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining xususiyati va miqdori, jinoyatning sodir etilishiga olib kelgan sabab va sharoitlar, yuridik shaxsning jinoyat oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan choralari, shaxslarning ushbu kodeksning 123-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan xatti-harakatlari, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat yuzasidan xabardor bo'lmagan va xabardor bo'lishi mumkin ham bo'lmagan vijdonli ta'sischi hamda aksiyadorlarning qonuniy manfaatlari, yuridik shaxsni tavsiflovchi holatlar, xususan, uning moliya bozorida tutgan o'rni, shuningdek, sudlanganligi inobatga olinadi. Bundan tashqari, yuridik shaxs jinoyatning sodir etilishiga olib kelgan sabab va sharoitlarni bartaraf qilgan, yetkazilgan zararining o'rnini qoplagan va jinoyatning boshqa oqibatlarini bartaraf etgan, qilmishning sodir qilinishi oqibatida qo'lga kiritilgan mol-mulk, shuningdek, daromadni qaytarib bergan taqdirda, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Ukraina JK esa vakolatli shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatning og'irlik darajasi, zararining miqdori, huquqqa xilof ravish-

da olingan foydaning xususiyati va miqdori, yuridik shaxs tomonidan jinoyatning oldini olishga qaratilgan choralarning ko'rilganligi hisobga olinishini mustahkamlaydi.

Chilining 2009-yilda qabul qilingan "Korporativ jinoiy javobgarlik to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra [11], javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar belgilangan bo'lib, yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini yengillashtiruvchi holatlar qatoriga JK 11-moddasi yettinchi (yetkazilgan ziyoning bartaraf etilishi va uning keyingi zararli oqibatlarining oldini olishga qaratilgan barcha choralarning ko'rilganligi) va to'qqizinchi qismlarida (ishga doir holatlarning aniqlanishida jiddiy ishtirok etganlik) [12] ko'zda tutilgan holatlar hamda yuridik shaxs tomonidan sud jarayoni boshlanguniga qadar tergov qilinayotgan turdagi jinoyat takrorlanishining oldini olishga qaratilgan samarali choralar ko'rilishi kiritiladi. Demak, Chili JK 11-moddasida jismoniy shaxslarga nisbatan yengillashtiruvchi holatlarning ro'yxati qayd etilgan bo'lib, ularning ayrimlari yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanishiga yo'l qo'yildi.

Nigeriyaning qator olimlari tomonidan esa yuridik shaxslarga nisbatan hukm chiqarish yuzasidan qo'llanma ishlab chiqish va sudlarga yuborish hamda yuridik shaxslarning javobgarligini hal qilish paytida yengillashtiruvchi holatlar sifatida korxonaning halokatli hodisa yuz berganidan keyingi xulq-atvori, javobgarlikni zudlik bilan bo'yniga olish, yuqori darajadagi hamkorlik, kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan xatti-harakatlar, xavfsizlikka mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish [13, 71-b.], jinoyatning korxonaning qonunchilikka rioya qilgan holda faoliyat yuritishi oqibatida sodir etilganligini hisobga olish ham taklif qilinadi [14, 548-b.].

AQSh Hukm chiqarish bo'yicha komissiyasi tomonidan 2021-yilda tasdiqlangan Hukm chiqarish bo'yicha federal ko'rsatmaning [15] "Tashkilotlarga nisbatan hukm chiqa-

rish" deb nomlangan sakkizinchi bo'limiga muvofiq, "tashkilot" deganda, jismoniy shaxslardan tashqari boshqa shaxslar tushuni- lib, ushbu bo'limda tashkilotlarga nisbatan tayinlanadigan jazo turlari, jinoyat natijasida yetkazilgan ziyonni bartaraf etish, to'lovga qobiliyatsizlik asosida jarima miqdorini kamaytirish, shu jumladan, belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq jazo tayinlash, shartli hukm tayinlash, tashkilot tomonidan jinoyatning tergov qilinishi yoki boshqa tashkilot tomonidan sodir etilgan jinoyatning ta'qib etilishi yoxud jinoyat sodir qilgan tashkilot bilan bog'liq bo'lmagan shaxsni ta'qib etishda ko'rsatilgan yordam asosida hukumatning iltimosnomasiga binoan, jazoning yengillashtirilishi singari masalalar o'z aksini topgan. Xususan, tashkilotga nisbatan yakuniy jazoni yengillashtiruvchi quyidagi ikki holat qayd etilib, bular muvofiqlik va etikani ta'minlashga doir samarali dasturning mavjudligi hamda o'z-o'ziga hisobot berish, hamkorlik va javobgarlikni qabul qilishdan iborat.

Avstriyaning 2005-yilda qabul qilingan va 2006-yil 1-yanvar sanasidan kuchga kirgan "Uyushmalarning javobgarligi to'g'risida"gi Qonunida [16] uyushmalarga nisbatan jarima jazosini tayinlashda inobatga olinadigan yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar ro'yxati keltirilgan bo'lib, uning 5(3)-moddasida ko'ra, yengillashtiruvchi holatlar sirasiga: 1) uyushma tomonidan mazkur jinoyatning oldini olishga qaratilgan ehtiyot choralari ushbu jinoyatning sodir etilishiga qadar ko'rilganligi yoki xodimlarning qonunga muvofiq harakat qilishga chorlanganligi; 2) uyushmalar faqatgina o'z xodimlari tomonidan sodir qilingan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilishi; 3) uyushma haqiqatning postfaktum aniqlanishiga muhim hissa qo'shganligi; 4) uyushma tomonidan qilmishning oqibatlari bartaraf etilganligi; 5) uyushma tomonidan shu kabi qilmishlarning kelgusida sodir etilishining oldini olishga qaratilgan muhim qadamlarning tash-

langanligi; 6) qilmish uyushma yoki uning egalari uchun jiddiy yuridik noqulayliklar keltirib chiqarganligi kiritiladi.

Serbiyaning 2008-yilda qabul qilingan “Yuridik shaxslarning jinoyat sodir etganligi uchun javobgarligi to’g’risida”gi Qonuni [17] 16-moddasi birinchi qismida jarima jazosini tayinlashda jazoni yengillashtirishning minimal chegaralari o’rnatilgan bo’lsa-da, mazkur moddaning ikkinchi qismiga muvofiq, sud yuridik shaxsni jazodan ozod qilishga haqli bo’lgan taqdirda, tegishli jazoni yuqoridagi chegaralarga rioya qilmasdan turib ham yengillashtirish vakolatiga ega ekanligini belgilaydi. Shuningdek, mazkur qonunning 34-moddasida Serbiya Jinoyat kodeksi [18] Umumiy qismining qaysi moddalari analogiya tariqasida yuridik shaxslarga nisbatan ham qo’llanishi mumkinligi belgilanib, mazkur moddalar qatoriga ushbu kodeksning 56-moddasi ham kiritildi. O’z navbatida, Serbiya JK 56-moddasi (Jazoni yengillashtirish) ga muvofiq, sud jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan qonunda nazarda tutilgan yoki yengillashtirilgan jazoni quyidagi hollarda tayinlashi mumkinligini mustahkamlaydi:

1) jazoni yengillashtirish qonunda nazarda tutilgan taqdirda;

2) qonun huquqbuzarni jazodan ozod qilishni ko’zda tutgan bo’lsa-yu, sud boshqacha qaror qabul qilgan taqdirda;

3) sud jazodan ko’zlangan maqsadga jazoni yengillashtirish yo’li bilan erishish mumkinligidan dalolat beruvchi maxsus yengillashtiruvchi holatlar (ing. particularly mitigating circumstances) mavjud deb hisoblagan taqdirda.

Shu o’rinda qayd etish joizki, Serbiya Respublikasi JKda yengillashtiruvchi holatlarining umumiy ro’yxati nazarda tutilmagan.

Norvegiyaning 2005-yil 20-mayda e’lon qilingan JK [19] 28-moddasida korxonaga nisbatan jarima jazosini tayinlash paytida jazoni baholashda quyidagi omillar e’tiborga olinishi ko’zda tutiladi:

a) jazoning profilaktik ta’siri;

b) jinoyatning og’ir-yengilligi va korxonaning nomidan shaxsning aybli harakat qilganligi;

d) korxonadan tomonidan boshqaruv tamoyillari, qo’llanmalar, o’qitish, tekshiruvlar yoxud boshqa choralardan foydalanish vositasida jinoyatning oldini olishi mumkin bo’lgan yoki bo’lmaganligi;

e) jinoyatning korxonadan manfaatlarini ilgari surish maqsadida sodir etilgan yoki etilmaganligi;

f) korxonaning jinoyat sodir qilish natijasida biror-bir ustunlikka erishganligi yoki erishishi mumkin bo’lganligi;

g) korxonaning moliyaviy imkoniyatlari;

h) korxonadan yoki uning nomidan harakat qilgan shaxsga nisbatan jinoyatdan kelib chiqadigan boshqa sanksiyalar, shu jumladan, har qanday alohida shaxsga nisbatan jarima jazosi qo’llanishi nazarda tutilganligi;

i) chet el davlatlari bilan kelishuvlarda korxonaga nisbatan sanksiyalar qo’llanishi nazarda tutilganligi.

Ruminiyaning 2009-yilda e’lon qilingan va 2014-yil 1-fevraldan kuchga kirgan JK [20] 147-moddasi yuridik shaxslar jinoiy javobgarligini yengillashtirish va og’irlashtirish tartibini nazarda tutadi. Xususan, jinoyatlar yoki yengillashtirish yoxud og’irlashtirish sabablarining raqobati holatida yuridik shaxsga nisbatan jismoniy shaxs uchun belgilangan jarima jazosini qo’llash tartibi tatbiq etiladi.

Ispaniya JK [21] 66 bis-moddasiga binoan, yuridik shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda ushbu kodeksning 66-moddasi birinchi qismi 1a–4a-, 6a–8a-bandlarida qayd etilgan (yengillashtiruvchi va og’irlashtiruvchi holatlar raqobati holatida jazo tayinlash) qoidalar, shuningdek, quyidagi qoidalar ham qo’llanildi:

1a. Ushbu qoidalar II kitob me’yorlari vositasida belgilangan taqdirda, mazkur kodeksning 33-moddasi yettinchi qismi b-g bandlarida nazarda tutilgan jazolar va ularning miqdorini belgilash yuzasidan qaror qabul qilish uchun quyidagilar inobatga olinadi:

a) buning jinoiy faoliyat davom ettirilishi yoki uning oqibatlarining oldi olinishi uchun zaruriyati;

b) buning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari, xususan, xodimlarga ta'siri;

d) nazoratga doir o'z majburiyatini bajar-magan jismoniy shaxs yoki organning yuridik shaxs tuzilmasida tutgan o'rni.

2a. Ushbu kodeks 33-moddaning yettinchi qismi s-g bandlarida nazarda tutilgan jazolar cheklangan muddatga tayinlanayotganda, ularning muddati jinoyat jismoniy shaxs tomonidan sodir etilgan taqdirda tayinlanishi lozim bo'lgan ozodlikdan mahrum qilish jazosining eng ko'p muddatidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Yuqoridagi s-g bandlarida nazarda tutilgan jazolar ikki yildan ko'p bo'lgan muddatga tayinlanishi uchun quyidagi holatlardan bit-tasi mavjud bo'lishi zarur:

a) yuridik shaxsning takroran jinoyat so-dir qilganligi;

b) yuridik shaxsdan jinoyat vositasi sifatida foydalanilishi. Yuridik shaxsning qonuniy faoliyati uning g'ayriqonuniy faoliyatiga nisbatan kamroq ahamiyatli bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan jinoyat sodir etish vositasi sifatida foydalanilgan hisoblanadi.

Sudlar yuqorida keltirilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlashda hukmda tayinlan-gan jazoning aniq darajasi va miqdorini asos-lab berishi talab etiladi (72-modda).

Sloveniyaning 2005-yildagi "Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi to'g'risida"gi Qonuni [22] 5-, 7-8- va 11-moddalarida yuri-dik shaxslarga nisbatan jazoni qisqartirishga doir quyidagi me'yorlar belgilangan:

1) yuridik shaxslar faqatgina ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgar-likka tortilishi hamda ularga nisbatan jazo qisqartirilishi ham mumkin;

2) oxirgi zaruratning asosli chegarasi-dan chiqib jinoyat sodir etilgan taqdirda, yuridik shaxsga nisbatan jazo qisqartirilishi yoki u butunlay jazodan ozod etilishi mum-kin;

3) jinoyatga suiqasd uchun yuridik shaxs-ga nisbatan tamom bo'lgan jinoyat uchun ko'zda tutilgan jazo tayinlanishi lozim bo'l-sa-da, jazo qisqartirilishi ham mumkin;

4) jinoyat sodir etilganidan so'ng yuridik shaxsning rahbariyati yoki nazorat organi to-monidan ixtiyoriy ravishda aybdor to'g'risida xabar berilgan taqdirda, yuridik shaxsga nis-batan jazo qisqartirilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ko'plab Yevropa mamlakatlarining ji-noyat huquqida yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi instituti tatbiq qilinganligi so'ng-gi bir necha o'n yilliklar davomida Yevropa qonunchiligi tomonidan mazkur institut-ning korporativ jinoyatchilikka qarshi kura-shishda fundamental asos sifatida tan olin-ganligidan dalolat qiladi. Xususan, Ispaniyada 2010-yildan e'tiboran "societas delinquere non potest" tamoyilining bekor qilinishi yuri-dik shaxslarning yopiq ro'yxat bilan qamrab olingan jinoyatlar (numerus clausus) uchun javobgarligini qat'iy belgilab berdi va jinoyat qonunchiligida bu masalada qat'iy burilish yasaldi deyish mumkin.

O'z navbatida, Estoniyada 2002-yilda yan-gi Jinoyat kodeksi qabul qilinishi bilan faqat-gina ma'muriy javobgarlik subyekti hisob-langan yuridik shaxslar ham qat'iy ro'yxat bilan qamrab olingan jinoyatlar subyektiga aylandi. Bunda qat'iy ro'yxat deganda, yu-ridik shaxslarning Jinoyat kodeksi Maxsus qismida qayd etilgan hollardagina tegishli jinoyat tarkiblari yuzasidan javobgarlikka tortilishi mumkin ekanligi tushuniladi. Xu-susan, bugungi kunga kelib, ushbu mam-lakatda yuridik shaxslar 133 nafar jinoyat tarkibining subyekti sanaladi. Biroq Estoni-ya qonunchiligini ham bu borada mukammal deb bo'lmaydi. Xususan, yuridik shaxsda rah-barlik vazifalarini bajaruvchi jismoniy shaxs-lar tomonidan nazoratning yo'qligi yoxud sustligi oqibatida mazkur yuridik shaxslar bo'ysunuvida bo'lgan shaxslar tomonidan so-dir etilgan jinoiy qilmishlar uchun yuqoridagi yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi ma-

salalari batafsil yoritilmagan bo'lib, vakolatli organlar tomonidan bu borada tushuntirish yoki sharhlar berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Chexiya va Avstriya jinoyat qonunchiligini qiyoslar ekanmiz, mazkur ikkala mamlakatning ham yuridik shaxslar jinoiy javobgarligini belgilovchi qonun hujjatlari ko'plab o'xshash jihatlarni ifoda qilishini kuzatamiz. O'z navbatida, ular orasidagi farqli jihatlarga asosan har ikkala mamlakat qonunchiligiga muvofiq, yuridik shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoiy qilmishlar ro'yxati va ularga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo turlari miqdorini kiritish mumkin. Xususan, Chexiyaning 2011-yilda qabul qilinib, 2012-yil 1-yanvar sanasidan kuchga kirgan "Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi to'g'risida"gi Qonunida [23] yuridik shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin bo'lgan 8 xil jazo turi ko'zda tutilgan bir paytda Avstriyaning "Uyushmalarning javobgarligi to'g'risida"gi Qonunida faqatgina yagona hukm va jarima bilan cheklanilgan. Ayni vaqtda har ikkala mamlakat qonunchiligida sodir etgan jinoyati uchun mahkum qilingan yuridik shaxslarning huquqiy vorislari jinoiy javobgarligi masalalarini tartibga solish muammoli masala hisoblanadi.

Rumuniya jinoyat qonunchiligi bo'yicha barcha yuridik shaxslar ham jinoyat subyekti bo'la olmaydi. Davlat va davlat boshqaruvi organlari ham shular jumlasidandir. Davlat muassasalari esa xususiy mulkchilik predmeti bo'la olmaydigan faoliyatlarni amalga oshirish davomida sodir etiladigan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Qonunda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar o'rtasida aniq chegara belgilanmagan bo'lsa-da, yuridik shaxslar jinoyat subyekti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar (misol uchun, onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishi, jazoni ijro etish muassasasidan qochish, ko'p xotinlik va b.)

ning subyekti bo'la olmaydi. Bu borada yuridik shaxs bajaruvchi, birgalikdagi bajaruvchi, dalolatchi yoki yordamchi sifatida ishtirok etishi mumkin bo'lgan har qanday jinoyat subyekti bo'la olgani holda, boshqa shaxsning emas, balki faqat o'z faoliyatidan kelib chiqadigan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shuningdek, qator institutlar borasida dastlabki huquqiy me'yorlar o'rnata olgan Yevropa mamlakatlari qonunchiligi, xususan, jinoyat huquqi sohasidagi qonun hujjatlari jahon miqyosida ko'plab mamlakatlar qonunchiligi taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazib keltirgan sir emas. Masalan, gollandiyaliklar tomonidan XX asrning boshlarida ishlab chiqilgan Indoneziya Jinoyat kodeksi korporativ jinoiy javobgarlikni ko'zda tutmagan bo'lsa-da, keyinchalik bir qator maxsus qonun hujjatlari vositasida korporatsiyalarning aniq va cheklangan ro'yxatga muvofiq jinoiy javobgarlik subyektiga aylanishini mustahkamlovchi me'yorlar tatbiq etilgan. Biroq sud amaliyotining tahlili korporativ jinoiy javobgarlikka tortish masalasida yagona yondashuvning mavjud emasligi hamda har bir sudyaning nuqtayi nazari individual bo'lishi mumkin ekanligini ko'rsatadi. Shu o'rinda olimlar va amaliyot xodimlari tomonidan istiqbolida mamlakat Jinoyat kodeksini qayta ko'rib chiqish vaqtida bevosita ushbu kodeksga korporatsiyalarning jinoiy javobgarligiga doir me'yorlarni tatbiq etish masalasini o'rganish taklifi ilgari suriladi.

Xulosalar

Korporativ jinoiy javobgarlik yoki korporatsiyalar jinoiy javobgarligining xususiyatlaridan biri sifatida mazkur korporatsiyalarning o'z xodimlari xatti-harakatlari va, aksincha, xodimlarni korporatsiya harakatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortish masalasi e'tiborga loyiq. Bu borada qator mamlakatlarda korporatsiyalar o'z xodimlarining qilmishi uchun faqatgina ushbu xodimlar o'z mehnat faoliyati doirasida harakat qilgan taqdirda javobgar bo'lishi bilan bir payt-

da uning xodimlari xatti-harakatlari qayd etilgan korporatsiya manfaatlarini ko'zlab amalga oshirgan holatlarni istisno qilgan holda javobgar bo'lmaydi. Xususan, AQSh jinoyat qonunchiligida fitna uyushtirish, qo'shib yuborish, tarqatib yuborish, jinoyatni yashirish va u haqida xabar bermaslik, xodimlarning jinoiy faoliyatini qasddan payqamaslik (ing. willful blindness doctrine), xodimlarning barchasi yoki bir qismining faraz qilingan huquqbuzarlikdan xabardorligi (ing. collective knowledge doctrine) singari holatlarda sud korporatsiyaga uning xodimlarining qasdi daxldorligini isbotlash orqali mazkur korporatsiyani o'z xodimlarining qilmishlari uchun javobgarlikka tortishi mumkin. Korporativ jinoiy javobgarlik va jazo tayinlash, xususan, jazoni yengillashtirish masalasi ushbu hamda yuqorida keltirilgan holatlar bilan cheklanmasligi bois mazkur maqola vositasida jazo tayinlash va uni yengillashtirish masalalarini to'liq o'rganish imkoni yo'q deb hisoblaymiz. Shunday bo'lsa-da, AQSh va boshqa mamlakatlarning bu boradagi uzoq yillik tajribasi milliy qonunchiligimizni takomillashtirish jarayonida eng qiziqarli tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib qoladi.

Shuningdek, so'nggi yillarda Yevropa Ittifoqining jinoyat huquqiga oid deyarli barcha hujjatlari yuridik shaxslarning jinoiy qilmishlar uchun javobgarligini tatbiq qilish

talabini ilgari surib kelmoqda. Shu sababdan istiqbolda Yevropa Kengashi hamda Yevropa Ittifoqining a'zolari bo'lmish barcha mamlakatlarda mazkur toifadagi subyektlarning javobgarligi masalasi tatbiq qilinishi shubha tug'dirmaydi. Uzoqqa bormasdan, MDH ga a'zo ayrim mamlakatlar ham bu boradagi tendensiyalarga amal qilgan holda, allaqachon yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi institutini o'z Jinoyat kodekslariga kiritishga ulgurganligini qayd etish joiz. Albatta, mazkur mamlakatlar jinoyat qonunchiligida korporativ jinoiy javobgarlik, xususan, jazo tayinlash va uni yengillashtirish masalasida kamchiliklar yetarli bo'lib, uni takomillashtirib borish tabiiy jarayon. Yuqoridagi mamlakatlar bilan ko'p qirrali iqtisodiy aloqalarga ega bo'lgan, qator xalqaro shartnomalar imzolangan, iqtisodiyoti jadal rivojlanib borayotgan hamda Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik yuzasidan bosqichma-bosqich chora-tadbirlar, xususan, amaldagi qonunchilikda o'zgarishlar amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga ham muayyan vaqt o'tgach, ushbu institutning kiritilishi muqarrar degan fikrdamiz. Albatta, mazkur institut tatbiq etilganidan so'ng biz ham tadqiqotchi sifatida yuridik shaxslarga nisbatan jazoni yengillashtirish, ya'ni jazo tayinlashning umumiy asoslari hamda yengillashtiruvchi holatlar ro'yxatini belgilash va boshqa masalalarga doir o'z takliflarimizni bildirib boramiz.

REFERENCES

1. Ginter J. Criminal Liability of Legal Persons in Estonia. *Juridica International*, 2009, vol. 16, pp. 151–156. Available at: https://www.juridicainternational.eu/public/pdf/ji_2009_1_151.pdf
2. Gorun T.H., Spulbar C., Birau R. General conditions for engaging the criminal liability of the legal persons based on penal laws and fiscal legislation. *A case study for Romania. Revista de Ştiinţe Politice. Revue des Sciences Politiques*, 2020, no. 67, pp. 92–102. Available at: https://www.researchgate.net/publication/344337958_General_conditions_for_engaging_the_criminal_liability_of_the_legal_persons_based_on_penal_laws_and_fiscal_legislation_A_case_study_for_Romania
3. Cuesta J.L.L. Criminal Responsibility of Legal Persons in Spanish Law. *International Review of Criminal Law*, 2013, vol. 84(1), pp. 143–179. Available at: <https://www.cairn.info/revue-internationale-de-droit-penal-2013-1-page-143.htm>

4. Uhlirova M. Criminal liability of legal persons – a comparison of Czech and Austrian legislation. *Proceedings of the Enterprise and the Competitive Environment 2014 conference (ECE 2014)*, 2014, March 6–7, Brno, Czech Republic. Available at: sciedirectassets.com
5. Jakulin V. The Criminal Liability of Legal Persons in the Republic of Slovenia. Faculty of Law, University of Ljubljana, Slovenia. Available at: <https://www.law.muni.cz/sborniky/dp08/files/pdf/trest/jakulin.pdf>
6. The Criminal Code of the Republic of Azerbaijan. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353
7. The Criminal Code of the Republic of Armenia dated 2021 5 May. Available at: http://www.parliament.am/law_docs_8/27052021H0199_rus.pdf
8. The Criminal Code of the Republic of Moldova. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923
9. The Criminal Code of Ukraine. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30418109
10. The Criminal Code of Georgia. Available at: <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=259>
11. On Establishment of the Criminal Liability of Legal Entities in the Crimes It Indicates. The Law of Chili. 2009, No. 20393. Available at: <https://www.bcn.cl/leychile/navegar?idNorma=1008668>
12. Penal Code of Chile dated 12.11.1874. Available at: <https://www.bcn.cl/leychile/navegar?idNorma=1984%2F>
13. Erhazel S., Momodu D. Corporate Criminal Liability: Call for a New Legal Regime in Nigeria. *Journal of Law and Criminal Justice*, 2015, December, vol. 3 (2), pp. 63–72. DOI: 10.15640/jlcj.v3n2a6
14. Suleh-Yusuf M. The concepts of corporate criminal liability and willful blindness: Theoretical and applicability challenges. *International Journal of Academic Research and Development*, 2018, vol. 3 (1).
15. Guidelines Manual 2021. USA. Available at: <https://www.ussc.gov/guidelines/2021-guidelines-manual-annotated>
16. Association Responsibility Act. *Federal Law Gazette*, 2005, no. 151. Available at: <https://www.jusline.at/gesetz/vbvg>
17. Law on the Liability of Legal Entities for Criminal Offences. Republic of Serbia. *Official Gazette of the Republic of Serbia*, 2008, no. 97/08. Available at: <https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Issues/Mercenaries/WG/Law/Serbia/LawOnLiability.pdf>
18. Criminal Code. Republic of Serbia, Belgrade, 2019. Available at: https://www.mpravde.gov.rs/files/Criminal%20%20Code_2019.pdf
19. Law on punishment (Criminal Law). Kingdom of Norway. Available at: https://lovdata.no/dokument/NLE/lov/2005-05-20-28/KAPITTEL_1#KAPITTEL_1
20. The Criminal Code of Romania. Available at: <https://legislatie.just.ro/Public/DetaliuDocument/109855>
21. Penal Code of Spain. Available at: <https://www.conceptosjuridicos.com/codigo-penal/>
22. Liability of Legal Persons for Criminal Offences Act of the Republic of Slovenia, 2005. Available at: https://sherloc.unodc.org/cld/uploads/res/document/svn/liability-of-legal-persons-for-criminal-offences-act_html/Slovenia_Liability_of_Legal_Persons_for_Criminal_Offences_Act.pdf
23. Criminal liability of legal entities and proceedings against. Act 2011, No. 418. Available at: <https://www.zakonyprolidi.cz/cs/2011-418#>